BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
1930

ISSN 2181-6833

# PEDAGOGIK MAHORAT

2
2021



ISSN 2181-6833
9 772181 683301

ISSN 2181-6883

# PEDAGOGIK MAHORAT

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**2-son (2021-yil, aprel)**

**Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan**

**Buxoro – 2021**

**PEDAGOGIK MAHORAT**
**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**
**2021, № 2**

Jurnal Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari boʻyicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim boʻlgan zaruruiynashrlar roʻyxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 6 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

**Muassis: Buxoro davlat universiteti**
**Tahririyat manzili:** O‘zbekiston Respublikasi,Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy
Elektron manzil: ped_mahorat@umail.uz

**TAHRIR HAY’ATI:**
**Bosh muharrir:** Adizov Baxtiyor Rahmonovich– pedagogika fanlari doktori, professor
**Bosh muharrir o‘rinbosari:** Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Mas’ul kotib:** Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

*Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori*
*Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor*
*Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor*
*Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor*
*Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G’arbiy Universitet, Bolgariya)*
*Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor*
*Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor*
*Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)*
*Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)*
*Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor*
*Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor*
*O‘rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor*
*Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor*
*Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*
*Olimov Shirinboy Sharopovich, pedagogika fanlari doktori, professor*
*Qiyamov Nishon Sodiqovich, , pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*
*Qahhorov Otabek Siddiqovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent*

**ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО**
**Научно-теоретический и методический журнал**
**№ 2, 2021**

Журнал включен в список обязательных выпусков ВАК при Кабинете Министров Республики Узбекистан на основании Решении ВАК от 29 декабря 2016 года для получения учёной степени по **педагогике** и **психологии**.

Журнал основан в 2001г.
Журнал выходит 6 раза в год
Журнал зарегистрирован Бухарским управлением агентства по печати и массовой коммуникации Узбекистана.
Свидетельство о регистрации средства массовой информации № 05-072 от 22 февраля 2016 г.
**Учредитель: Бухарский государственный университет**
**Адрес редакции:** Узбекистан, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11.
e-mail: ped_mahorat@umail.uz

**РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:**
**Главный редактор:** Адизов Бахтиёр Рахманович – доктор педагогических наук, профессор
**Заместитель главного редактора:** Навруз-заде Бахтиёр Нигматович – доктор экономических наук, профессор
**Ответственный редактор:** Хамраев Алижон Рузикулович – доктор педагогических наук (DSc), доцент

*Хамидов Обиджон Хафизович , доктор экономических наук*
*Бегимкулов Узакбай Шаимкулович, доктор педагогических наук, профессор*
*Махмудов Мэлс Хасанович, доктор педагогических наук, профессор*
*Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор*
*Янакиева Елка Кирилова, доктор педагогических наук, профессор (Болгария)*
*Каххаров Сиддик Каххарович, доктор педагогических наук, профессор*
*Махмудова Муяссар, доктор педагогических наук, профессор*
*Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор (Ярославль, Россия)*
*Чудакова Вера Петровна, PhD (Психология) (Киев, Украина)*
*Таджиходжаев Закирходжа Абдусаттарович, доктор технических наук, профессор*
*Аманов Мухтор Рахматович, доктор технических наук, профессор*
*Ураева Дармоной Саиджановна, доктор филологических наук, профессор*
*Дурдыев Дурдымурад Каландарович, доктор физико-математических наук, профессор*
*Махмудов Насыр Махмудович, доктор экономических наук, профессор*
*Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор*
*Киямов Нишон Содикович, доктор педагогических наук, профессор*
*Каххаров Отабек Сиддикович, доктор экономических наук (DSc)*

**PEDAGOGICAL SKILLS**
**The scientific-theoretical andmethodical journal**
**# 2, 2021**

The journal is submitted to the list of the scientific journals applied to the scientific dissertations for **Pedagogic** and **Psychology** in accordance with the Decree of the Presidium of the Ministry of Legal office of Uzbekistan Republic on Regulation and Supervision of HAC (The Higher Attestation Commission) on December 29, 2016.

The journal is published 6 times a year
The journal is registered by Bukhara management agency for press and mass media in Uzbekistan.
The certificate of registration of mass media № 05-072 of 22 February 2016

**Founder: Bukhara State University**

**Publish house:**Uzbekistan, Bukhara, Muhammad Ikbol Str., 11.
e-mail: ped_mahorat@umail.uz

**EDITORIAL BOARD:**

**Chief Editor:** Pedagogical Sciences of Pedagogy, Prof. Bakhtiyor R. Adizov.
**Deputy Editor:** Pedagogical Sciences of Economics, Prof. Bakhtiyor N. Navruz-zade.
**Editor:** Doctor of Pedagogical Sciences( DSc), Asst. Prof. Alijon R. Khamraev

*Doctor of Economics Sciences Obidjan X. Xamidov*
*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Uzakbai Sh. Begimkulov*
*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Mels Kh. Mahmudov*
*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Holby I.Ibrahimov*
*Ph.D. of Pedagogical Sciences, Prof. Yelka K. Yanakieva (Bulgaria)*
*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Siddik K. Kahhorov*
*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof.M.Mahmudova*
*Doctor of Psychology, Prof. Vladimir V. Kozlov (Yaroslavl, Russia)*
*Ph.D. of Psychology, Vera P. Chudakova (Kiev, Ukraina)*
*Doctor of Technical sciences, Prof. Mukhtor R.Amanov*
*Doctor of Technical sciences, Prof. Zakirkhodja A. Tadjikhodjaev*
*Doctor of Philology, Prof. Darmon S. Uraeva*
*Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. Durdimurod K. Durdiev*
*Doctor of Economics, Prof. Nasir N. Mahmudov*
*Doctor of Pedagogical Science, Prof. Shirinboy Sh. Olimov*
*Doctor of Pedagogical Science, Prof. Nishon S. Kiyamov*
*Doctor of Economics Sciences Otabek S.Kahhorov*

## MUNDARIJA

**PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA...........................................................................7**

Зариф УМУРОВ. Таълимни рақамлаштириш шароитида ўқув-билув муаммоларини таълим жараёнига татбиқ қилишнинг шарт-шароитлари ....................7

Иброҳим УМАРОВ. Хорижий давлатлар ва мамлакатимиз кредит-модуль тизимининг қиёсий таҳлили ....................11

Зилола РАСУЛОВА. Бўлажак технология фани ўқитувчиларининг креативлигини ривожлантиришда дастурий таълим воситаларидан фойдаланиш....................15

Муслима БОЗОРОВА. Роль этнопедагогики в подготовке компетентного специалиста в системе педагогического образования....................21

Зебохон МАМАРАҲИМОВА. Ўспиринларнинг ўзини-ўзи тарбиялаши педагогик муаммо сифатида26

Mirzomurod NAFASOV. Mobil ta'lim va undan foydalanishning ahamiyati....................33

Обод ЭРГАШЕВА. Ўзбек оилаларида қиз болалар тарбияси....................38

Baxrom URINOV. Ta'limga yevropa integratsiyasining asosiy maqsadi va tamoyillari ....................45

Nuriddin ACHILOV. Hakim at-Termiziy asarlari vositasida talabalarda ma'rifatparvarlik fazilatlarini rivojlantirish mazmuni....................48

Зебо ТЎХТАЕВА. Олий таълимда ихтисослик фанлари интеграциясини таъминлаш имкониятлари..53

Бобиржон ЭРГАШЕВ. Профессионал таълим тизими битирувчиларининг касбий кўникмаларини эгаллашларида педагогик стратегиялар ....................60

Зубайда БАХРАНОВА. Корпоративная культура в условиях инновационного развития вуза....................65

Ғулом БОҚИЕВ. Педагоглар малакасини оширишда замонавий таълим методларидан фойдаланиш .68

Гулноз ҚУРБОНОВА. Дарс машғулотларида талабалар касбий тафаккурини ривожлантиришга инновацион ёндашув....................72

Dilnoza AXMEDOVA, Baxtiyor ADIZOV. Pedagogika fanlarini o'qitishda muammoli ta'lim metodlarining o'rni....................78

Dilora SIDIQOVA. Masofaviy ta'lim sharoitida talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish.........81

Сардор ХОДЖАНИЯЗОВ. Сулаймон Боқирғоний ҳикматларида ахлоқий ва маънавий тарбия тўғрисидаги ғояларининг акс этиши ....................85

Динара АТАДЖОНОВА. Имоми Аъзам Абу Ҳанифа асарларида хулқий гўзалликни қарор топтиришнинг тарбиявий усул ва воситалари....................89

Манзура РАХМЕДОВА. Маҳмуд аз-Замахшарий асарларида маънавий-маърифий ва ахлоқий масалалар....................93

Санжар МИРЗАЕВ. Қишлоқ ва сув хўжалигида сувдан фойдаланиш этикасини ўргатиш методикаси96

Шерзод АБДУРАХМАНОВ. Ўқувчи-ёшларда ватанпарварликни шакллантиришда мутафаккирларнинг таълим –тарбияга оид қарашларидан фойдаланиш....................103

Марҳабо АШУРОВА. Футувват (жавонмардлик) - ахлоқий тарбия асоси....................106

Rohila NORQO'CHQOROVA. Pedagogika kolleji o'quvchilarida qadriyatli munosabatni shakllantirish samaradorligini oshiruvchi omillar....................110

Насиба ЖУМАНИЁЗОВА. Аутизм ташхисли болаларга ота-оналарнинг муносабатини шакллантириш ....................113

Машҳура СУЛТОНОВА. Зўравонликни бошдан кечирган аёлларнинг ижтимоий-психологик хусусиятлари....................117

Go'zal YUNUSOVA. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kreativ tafakkuri rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari....................121

**MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM....................125**

Maqsuda NORBOSHEVA. Maktabgacha yoshdagi bola shaxsini rivojlantirishda o'yinli texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati....................125

Рустамбек ҚЎЛДОШЕВ. Чапақай ўқувчиларнинг мактабга мослашуви ва унинг ўзига хос хусусиятлари....................127

Малика ХАЙДАРОВА. Бошланғич таълим жараёнига индивидуал ёндашувни татбиқ этишнинг ўзига хос хусусиятлари ....................133

Наргиза КУЧКАРОВА. Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларини ўқув фанларида иқтисодий - маданий ривожлантиришнинг модели ва технологияси....................136

Бибихол КАРИМОВА. Меҳрибонлик уйлари бошланғич синф тарбияланувчиларида миллий ғururни ҳадислар асосида шакллантиришда интерактив методлардан фойдаланиш ....................139

Farhod JALOLOV, Gulmira SHARIPOVA. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida didaktik o'yinlarni multimedia texnologiyasi asosida tashkil etish ....................143
Umida TOG'AYEVA. "Ona tili o'qitish metodikasi" modulini o'qitishda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish....................145

**FILOLOGIYA VA TILLARNI O'RGANISH ....................149**
Муқаддас ТЎРАБОЕВА. Она тили таълимида тафаккурни ривожлантирувчи машқлар методикаси 149
Дилноза НАЗАРОВА. Ўзбек тили лексикасининг мустақиллик йилларидаги тараққиёти....................152
Собит АВЕЗОВ. Алишер Навоий ижодида фольклор анъаналари....................154
Дилбар ШАРИПОВА, Мурод ХУСЕНОВ. Интерактивные методы при изучении русского языка ....157
Muzaffar RAKHIMOV. Modern methods and technologies of teaching english language in higher school 162
Zarifa RO'ZIMURODOVA. Ways of integration wiki technology into foreign language teaching ....................167
Sirojiddin ABDURAXMANOV. Nemis tilidagi fe'l boshqaruvini talabalarga derivativ ifodalar orqali tushuntirish ....................169

**ANIQ VA TABIIY FANLARNI O'QITISH ....................172**
Покиза ЖАЛОЛОВА. Таълимда рақамли технологияларни қўллаш методикаси ....................172
Negmurod DONIYOROV. Matematika fanini o'qitishda buyuk ajdodlarimiz ilmiy merosidan foydalanish177
Олим ТЎРАҚУЛОВ, Ўктам ҲАЛИМОВ, Техника йўналиши талабаларининг математик билимларини оширишда лойиҳали ёндашувнинг самарадорлиги....................182
Bobur ISMOILOV. Yangi O'zbekiston – yangicha matematik qarash....................186
Mehriniso ATOYEVA. Fizika kursi mavzularini fanlararo integratsiya asosida o'qitish metodikasi ....................191
Эргаш МАХМАНОВ. Физика дарсларида бўлажак муҳандисларнинг касбий компетенцияларини ривожлантириш ....................195
Gulnora IXTIYAROVA, Charos HAYDAROVA, Ma'murjon AXADOV, Zohida ISHMANOVA. Kimyo fanida zamonaviy ta'limning innovatsion shakllari....................201
Ma'murjon AHADOV. "D.I.Mendeleyevning kimyoviy elementlar davriy sistemasi"ni 3D texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi....................205
Лобар ШАРИПОВА. Кимё фанини ўқитиш жараёнида экологик тарбия ....................210

**IQTISODIYOT VA TURIZM ....................213**
Gulchexra UMAROVA. Menejerda boshqaruv madaniyatini shakllantirish zaruriyati....................213

**TASVIRIY SAN'AT VA MUSIQA TA'LIMI ....................216**
Маърифат УМУРОВА. Традиционное искусство Бухары ....................216
Ифтихор КАМОЛОВ, Линар ХАЛИЛОВ. График натюртмортни яратишни ўрганиш тажрибалари .223
Tolib SOBIROV, Qavmiddin OMONOV. IX-XV asrlar Markaziy Osiyo allomalarining geometrik yasashlarni zamonaviy ta'limda qo'llash ....................225
Фаррух НУРУЛЛАЕВ, Бобур НУРУЛЛАЕВ, Нодира НУРУЛЛАЕВА. Мусиқа таълимида Бухоро фольклор қўшиқларини танлаб олишга қўйиладиган методик талаблар....................228
Насиба ИНОЯТОВА. Шашмақом тарихидан ....................233

**JISMONIY MADANIYAT VA SPORT ....................238**
Дилноза Рахматова. Спортчилар чидамлилиги мониторинги учун тест ....................238

Бухоро вилоят футбол жамоаси "Универсиада" совриндори ....................245
"Педагогик маҳорат" журнали учун мақолаларни расмийлаштириш талаблари....................247

**Dilora SIDIQOVA**
Buxoro davlat universiteti
tayanch doktoranti

# MASOFAVIY TA’LIM SHAROITIDA TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

*Ushbu maqolada masofaviy ta’lim sharoitida talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish haqida ma’lumot berilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *masofaviy ta’lim, internet, o‘qitish tizimi, ta’lim kompleksi, moslashuvchanlik, modullilik, parallellik, keng qamrovlilik, axborot texnologiyalar, muloqot.*

*В данной статье представлена информация о формировании профессиональной компетентности студентов в условиях дистанционного обучения.*

***Ключевая слова:*** *дистанционное обучение, интернет, система обучения, образовательный комплекс, гибкость, модульность, парраллелизм, полнота, информационные технологии, общение.*

*This article provides information on the formation of students’ professional competencies in the context of distance learning.*

***Keys words:*** *distance learning, internet, learning system, educational complex, flexibility, modularity, parallelism, comprehensiveness, information technology, communication*

**Kirish.** Bugungi kunda taraqqiyot juda tez rivojlanmoqda va o‘zgarmoqda. Deyarli har daqiqada dunyoning turli burchaklarida o‘zgarishlar, yangilanishlar va kutilmagan voqea-hodisalar sodir bo‘lmoqda. Mamlakatimiz ta’lim tizimida sezilarli darajada o‘zgarishlar ro‘y berayotganligi kun sayin yaqqol ko‘rinib bormoqda. Turli ta’lim shakllari qatori, ayniqsa, masofadan o‘qitish keng qo‘llanilayotganligi ham quvonchli hol. Internetning imkoniyatlari kundan-kunga oshib bormoqda. Internetdan foydalanishning yangi bosqichi boshlandi, ya’ni Internet turli sohalarga tatbiq qilindi. Internet texnologiyalar: masofadan o‘qitish, elektron kutubxonalar, telemeditsina, telemetrologiya, elektron tadbirkorlik, elektron magazinlar va boshqalar.

Masofaviy ta’lim - masofaviy o‘qitishga asoslangan ta’lim. Masofaviy o‘qitish - o‘zaro ma’lum bir masofada Internet texnologiya yoki boshqa interaktiv usullar va barcha o‘quv jarayonlari komponentlari - maqsad, mazmun, metod, tashkiliy shakllar va o‘qitish usullariga asoslangan ta’lim oluvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi munosabat.

Masofaviy o‘qitish tizimi - masofaviy o‘qitish shartlari asosida tashkil etiladigan o‘qitish tizimi. Barcha ta’lim tizimlari singari masofaviy o‘qitish tizimi o‘zining tarkibiy maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari va tashkiliy shakllariga ega.

**Asosiy qism.** Masofaviy ta’lim – masofadan turib o‘quv axborotlarini almashuvchi vositalarga asoslangan, o‘qituvchi maxsus axborot muhit yordamida, aholining barcha qatlamlari va chet ellik ta’lim oluvchilarga ta’lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi ta’lim kompleksidir. Demak, masofaviy o‘qitish masofaviy ta’lim kompleksidagi jarayon ekan. Masofaviy o‘qitishning va masofaviy ta’limning o‘ziga xos xususiyatlari, pedagogik tizimi, zarurligi va maqsadi mavjud. Masofaviy ta’lim an’anaviy ta’lim turidan quyidagi xarakterli xususiyatlari bilan farqlanadi.

Moslashuvchanlik – ta’lim oluvchiga o‘ziga qulay vaqt, joy va tezlikda ta’lim olish imkoniyati mavjudligi.

Modullilik – bir biriga bog’liq bo‘lmagan mustaqil o‘quv kurslari to‘plamidan - modullardan individual yoki guruh talabiga mos o‘quv rejasini tuzish imkoniyati mavjudligi.

Parallellik – o‘quv faoliyatini ish faoliyati bilan birga parellel ravishda, ya’ni ishlab chiqarishdan ajralmagan holda olib borish imkoniyati mavjudligi.

Keng qamrovlilik – ko‘p sonli o‘quvchilarning bir vaqtning o‘zida katta o‘quv (elektron kutubxona, ma’lumotlar va bilimlar bazasi va boshqalar) zahiralariga murojaat qila olishi. Bu ko‘p sonli o‘quvchilarning kommunikatsiya vositalari yordamida o‘zaro va o‘qituvchi bilan muloqotda bo‘lish imkoniyati.

Iqtisodiy tejamkorlik – o‘quv maydonlari, texnika vositalari, transport vositalari va o‘quv materiallaridan samarali foydalanish, o‘quv materiallarini bir joyga yig’ish, ularni tartiblangan ko‘rinishga keltirish va bu ma’lumotlarga ko‘p sonli murojaatni tashkil qilib bera olish mutaxassislarni tayyorlash uchun ketadigan xarajatlarni kamaytiradi.

Ijtimoiy teng huquqlilik – ta’lim oluvchining yashash joyi, sog’lig’i va moddiy ta’minlanish darajasidan qat’iy nazar hamma qatori teng huquqli ta’lim olish imkoniyati.

Internatsionallilik – ta’lim sohasida erishilgan jahon standartlariga javob beradigan yutuqlarni import va eksport qilish imkoniyati. O‘qituvchining yangi roli – masofaviy o‘qitish o‘qituvchining o‘qitish jarayonidagi rolini yanada kengaytiradi va yangilaydi. Endi o‘qituvchi o‘zlashtirish jarayonini muvofiqlashtirishi, yangiliklar va innovatsiyalarga mos ravishda berayotgan fanini muntazam mukammallashtirishi, saviya va ijodiy faoliyatini yanada chuqurlashtirishi talab etiladi.

Sifat – masofaviy o‘qitish usuli ta’lim berish sifati bo‘yicha kunduzgi ta’lim turidan qolishmaydi. Balki, mahalliy va chet ellik dars beruvchi kadrlarni jalb qilib, eng yaxshi o‘quv-metodik darsliklar va nazorat qiluvchi testlardan foydalangan holda o‘quv jarayonini tashkil etish sifatini oshirishi mumkin.

Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o‘qituvchi yuqori pedagogik mahorat va keng dunyoqarashga ega bo‘lishi kerak. Shundagina oz mehnat sarf qilib, katta natijaga erishadi, ijodkorlik uning hamisha hamkori bo‘ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste’dodli kishigina pedagogik mahorat egasi bo‘lishi mumkin. Pedagogik faoliyatning samarali bo‘lishi uchun o‘qituvchi o‘z fanini chuqur bilishi, unga turdosh fanlar haqida ham tushunchaga ega bo‘lishi, o‘quv materialini o‘quvchilarga tushunarli qilib bayon eta olishi, o‘quvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg’otishi, o‘quvchilarning bilim, kamolot darajasi va ruhiyatini hisobga olishi, ularning nimani bilishlari va hali nimani bilmasliklarini tasavvur eta olishi lozim. Qobiliyatli, tajribali o‘qituvchi o‘zini o‘quvchining o‘rniga qo‘ya oladi, u kattalarga aniq va tushunarli bo‘lgan narsalarni o‘quvchilarga tushunilishi qiyin va mavhum bir narsa bo‘lishi ham mumkinligiga asoslanib ish tutadi. Shuning uchun u bayon etishning xarakter va shaklini alohida o‘ylab chiqadi hamda rejalashtiradi.

O‘qituvchi o‘quvchining, ichki dunyosiga kira olishi, o‘quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilishi bilan bog’liq bo‘lgan psixologik kuzatuvlar olib borishi kerak. Bunday o‘qituvchi o‘quvchining ruhiyatidagi ko‘z ilg’amas o‘zgarishlarni ham tez fahmlab oladi.

O‘qituvchida nutq o‘z fikr va tuyg’ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati hisoblanadi. Bu o‘qituvchilik kasbi uchun juda muhimdir.

Masofaviy ta’lim (lotincha “distansiya” – masofadan foydalanish) o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi to‘g’ridan-to‘g’ri, shaxsiy aloqasiz “Masofadan o‘qitish” imkonini yaratib beruvchi zamonaviy axborot va telekommunikastion texnologiyalardan foydalanish bo‘lib, unga ko‘ra ta’lim jarayoni yangi axborot texnologiyalari, multimedia tizimi yordamida tashkil etiladi. U o‘quv fanlari bo‘yicha o‘zlashtirish samaradorligini ta’minlash; idrok etish qobiliyatini rivojlantirish kabi imkoniyatlarga ega. Kompyuter ta’limi masofaviy ta’limning o‘ziga xos turi sanaladi.

Masafaviy ta’lim turli yo‘llar bilan amalga oshiriladi. Har bir usul muayyan harakatlardan iborat bo‘lib, har xil didaktik vositalar yordamida ma’lum bir maqsadga erishishga xizmat qiladi. Namoyish etish, tushuntirish, hikoya qilish, suhbat, mashq, masala yechish, yozma ish kabilar shular jumlasidandir.

Masofaviy ta’limda o‘qituvchi va talaba foydalanadigan texnika vositalari yordamida ta’lim mazmunini taqdim etish, talabaning o‘quv-biluv faoliyatini tashkil etish va boshqarish vazifalari bajariladi. Ma’lum bir o‘quv-biluv faoliyati – bosma material, audio-video material shaklida taqdim etilishi mumkin. Masofaviy ta’lim vositalari, jumladan, quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- elektron darslik, qo‘llanma, spravochniklar;
- kompyuter tarmog’idagi o‘quv-metodik materiallar;
- odatdagi va multimedia mahsuloti shaklidagi kompyuter ta’limi tizimlari;
- audio, video o‘quv axborot materiallari;
- masofaviy elektron - axborot kutubxonalari, masofaviy bilim va axborot bazalari kabilar.

Masofaviy ta’lim shakllari qatorida matnli elektron ma’ruzalar; video konferensiya shaklidagi seminar mashg’ulotlar; axborot texnologiyalari (elektron pochta, telefon kabilar) yordamida amalga oshiriladigan konsultatsiya (maslahat)lar; kompyuter tarmoqlari orqali o‘tkaziladigan laboratoriya mashg’ulotlari; mustqil ishlash kabilardan foydalanish mumkin.

Masofaviy o‘qitishda turli xil axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalaniladi. Masalan, an’anaviy bosma usuliga asoslangan o‘qitish vositalari (o‘quv qo‘llanma, darsliklar) talabalarni yangi material bilan tanishtirishga asoslansa, interaktiv audio va video konferensiyalar ma’lum vaqt orasida o‘zaro muloqotda bo‘lishga, elektron pochta to‘g’ri va teskari aloqa o‘rnatishga, ya’ni xabarlarni jo‘natish va qabul qilishga mo‘ljallangan. Oldindan tasmaga muhrlangan videoma’ruzalar ta’lim oluvchilarga ma’ruzalarni tinglash va ko‘rish imkonini bersa, faksimal aloqa, xabarlar, topshiriqlarni tarmoq orqali tezkor almashinish ta’lim oluvchilarga o‘zaro teskari aloqa orqali o‘qitish imkonini beradi.

O‘qituvchi zamonaviy axborot texnologiyalariga ega bo‘lishi kerak, ulardan to‘g’ri foydalanilganda darsga tayyorgarlik ko‘rish vaqtini tejash, ishlarni va darsdan tashqari mashg’ulotlarni tekshirish uchun vaqtni oqilona taqsimlash, talabalarning o‘z fanlariga qiziqishini oshirish, yuqori natijalarga erishishga

undashi kerak. Zamonaviy axborot xizmatlari o‘qituvchiga darsni yanada samarali qilishga, talabalar bilan birgalikda tadbirlar yanada qiziqarli qilishga yordam beradi.

**Muhokamalar va natijalar.** Kasbiy kompetensiya nima?

Kasbiy kompetensiya mutaxassisning kasbiy faoliyatni amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorgarligi birligi bilan tavsiflanadi.

V.I.Volinkinning fikriga ko‘ra, kasbiy kompetensiya - bu aqliy va shaxsiy (insoniy) fazilatlarning birikmasi va bunday aqliy va shaxsiy (aqliy) holat, bu sizga mustaqil va mas’uliyatli harakat qilish imkonini beradi. Bu ma’lum mehnat funksiyalarini bajarish qobiliyati. Bu borada bir nechta olimlarning fikrlarini o‘rganib chiqamiz.

S.A. Drujilov, o‘qituvchining kasbiy mahorati bu mutaxassislik fanining sifat jihatidir, u fan sohasida ham, pedagogika va psixologiya sohasida ham ilmiy va nazariy bilimlar tizimini o‘z ichiga oladi. O‘qituvchining kasbiy mahorati bu ko‘p qirrali hodisadir, jumladan o‘qituvchining nazariy bilimlari tizimi va ularni muayyan pedagogik vaziyatlarda qo‘llash usullari, o‘qituvchining qadriyat yo‘nalishi, shuningdek, madaniyatining integratsion ko‘rsatkichlari (nutq, muloqot uslubi, o‘ziga va faoliyatiga, tegishli bilim sohalariga va boshqa sohalarga) boshqa.

N.V.Kuzmina o‘qituvchining kasbiy faoliyatini o‘rganayotganda, kasbiy va pedagogik kompetensiya “mavzuni shaxsni shakllantirish vositasiga aylantirishning maxsus qobiliyati, ilmiy va amaliy bilimlarni shakllantirish qobiliyati” bilan tavsiflanadi.

L.M.Mitina o‘qituvchining mehnat va kasbiy rivojlanish psixologiyasini hisobga olgan holda, pedagogik kompetensiyani mavzu bo‘yicha bilimlarni, o‘qitish usullari va didaktikani, qobiliyat va pedagogik muloqot madaniyatini, shuningdek, o‘zini o‘zi rivojlantirish, takomillashtirish va o‘zini o‘zi anglash usullari va vositalarining uyg’un kombinatsiyasi sifatida belgilaydi.

Kasbiy kompetensiyani shakllantirish ta’lim mazmuni orqali, shuningdek, kasbning asoslarini o‘zlashtirish jarayonida shakllangan kasbiy ko‘nikmalar orqali amalga oshiriladi.

O‘qituvchining nutqi aniq, jonli, obrazli, talaffuzi jihatdan yorqin, ifodali, his-hayajonli bo‘lib, unda stilistik, grammatik, fonetik nuqsonlar uchramasligi lozim.

Masofaviy o‘qitishda talabalarning kommunikativ faolligi turli xil sifat xususiyatlariga ega bo‘lgan fanlarning ishtirok etish imkoniyati bo‘yicha tegishli kunduzgi shakldan farq qiladi. Masofaviy aloqa faoliyatining subyektlari doirasi amalda na miqdori, na geografik fazosi, na vaqt mintaqalari bilan cheklanmaydi.

Masofaviy ta’lim shakllari ishtirokchilari uchun o‘quv maydonini kengaytiradigan, o‘z mahsulotlarini foydalanuvchilarning keng doirasiga taqdim etishga imkon beradigan masofaviy rejimda kognitiv samarali ishlab chiqarish faoliyati davomida talabalar tomonidan yaratilgan ijodiy o‘quv mahsuloti elektron konferensiyalar va suhbat munozaralarida muhokama uchun taqdim etiladi. Yaratilgan ijodiy mahsulotlar to‘g’risidagi fikrlar va mulohazalar masofaviy o‘qitish subyektlari bilan ta’lim aloqasiga kirishadi.

Masofaviy ta’lim oluvchi o‘z ta’lim mahsulotining ishlash sifatiga ta’sir etuvchi telekommunikatsiyalar, axborot qatorlari, kompyuter dasturlari va jihozlaridan foydalanish bo‘yicha o‘ziga xos ko‘nikmalarni egallashi va rivojlanishi kerak.

Maxsus texnik ko‘nikmalarni egallash turli darajadagi kompyuter ko‘nikmalariga ega bo‘lgan talabalarga masofaviy o‘qishning turli shakllarida bir darajadan boshqasiga o‘tish imkonini beradi.

**Xulosa.** Masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish zamonaviy gadjetlarning paydo bo‘lishi va shuning uchun yangi aloqa imkoniyatlari paydo bo‘lishi sababli zamonning moda yo‘nalishi emas. Aslida, bu o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning sifat jihatidan yangi darajasidir. Faol jamiyat cheksiz axborot oqimida harakat qila oladigan, uzluksiz rivojlanish va o‘z-o‘zini o‘qitish uchun tayyor zamonaviy talabga ega. Bunday vaziyatda o‘qituvchi yangi rolni - bilimlarni o‘tkazuvchi, yordamchi va maslahatchi rolini oladi. Ammo bilim maqsad sifatida emas, balki shaxsni rivojlantirish usuli sifatida harakat qiladi.

Masofaviy talim va ularning o‘quv jarayonida qo‘llanish sabablari ta’lim tizimida o‘quv jarayonini yangidan isloh qilish, yangi informatsion texnologiyalarga asoslangan o‘qitish usullarini ishlab chiqish, ularni keng joriy qilish bugunning talabidir. Bunda masofaviy talim tizimini joriy qilish maqsadga muvofiqdir.

## Adabiyotlar

1. Ochilov M., Ochilova N. Oliy maktab pedagogikasi. –Toshkent, 2008. -260 bet.

2. Azimjanova M., Muradova T., Pazilova M. Informatika va axborot texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”, 2013.

3. Sidikova S. D. Theoretical and didactic principles of distance learning //ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. – 2021. – Т. 11. – №. 1. – С. 541-548.

4. Olloqova M. O. Intensive education and linguistic competence in mother tongue //ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. – 2021. – Т. 11. – №. 1. – С. 580-587.

5. Косимов Ф. М., Ярашов М. Ж. ТВОРЧЕСКИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНЫЕ РАБОТЫ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ //ИННОВАЦИОННЫЙ ПОТЕНЦИАЛ РАЗВИТИЯ НАУКИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ. – 2020. – С. 178-181.

6. Yunus Y. S. Methodology Of Teaching Assignments To Work With Non-Standard Solution In Primary School Mathematics Education //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 02. – С. 439-446.

7. www.ziyonet.uz – Axborot ta’lim portali

8. www.edu.uz – Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi portali